

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 101-124(5)

O'ZBEKISTONDA O'ZGALARGA TOQATSIZLIKNI KUCHAYIB BORISHIGA SABAB BO'LAYOTGAN IJTIMOY MUAMMOLAR TAHLILI**АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ, ВЫЗЫВАЮЩИХ РОСТ НЕТЕРПИМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ****ANALYSIS OF SOCIAL PROBLEMS CAUSING THE GROWTH OF INTOLERANCE IN UZBEKISTAN****Mamasaliyev Mirzoulug' Mirsaidovich** 

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

O'zbekistonda o'zgalarga toqatlilikni namoyon bo'lishi va o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili keltirilgan. Shu bilan birga jamiyatimizda toqatlilikni o'zgarib borishi va unga ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy omillar tadqiq etilgan.

Аннотация

Представлен анализ социальных проблем, способствующих развитию толерантности и росту нетерпимости в Узбекистане. При этом изучаются изменения толерантности в нашем обществе и социальные факторы, влияющие на нее.

Abstract

An analysis of social problems causing the manifestation of tolerance to others and the intensification of intolerance to others in Uzbekistan is presented. At the same time, the changes in tolerance in our society and the social factors influencing it are studied.

Kalit so'zlar: o'zgalarga toqatlilik, toqasizlik, bag'rikenglik, bardoshlilik, chidamlilik, tolerantlik, adolatlilik.

Ключевые слова: толерантность, нетерпимость, толерантность, выносливость, выносливость, толерантность, справедливость.

Keywords: tolerance to others, intolerance, tolerance, endurance, tolerance, justice.

KIRISH

Har bir jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning dini, millati, tili va madaniyatiga qaramay, bir-birini qabul qilish va hurmat qilishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston, o'zining boy tarixiga va madaniyatiga ega bo'lgan mamlakat sifatida, ko'plab turli millatlar va dinlarga mansub odamlarning birgalikda yashashi uchun yaxshi sharoitlarga egadir. Ammo, bugungi kunda o'zgalarga toqatlilik holati har doim ham qoniqarli darajada namoyon bo'lmayotganligi ko'rinib qolmoqda.

O'zbekistonda turli millatlarning yashashi mamlakatning madaniy xilma-xilligini ta'minlaydi. Uzbeklar, ruslar, qirg'izlar, tojiklar va boshqa milliy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi muhimdir. Bularning barchasi mamlakatning ijtimoiy barqarorligi uchun kerak bo'lgan faktorlardir. Shunday bo'lsa-da, ba'zi hollarda o'zgalarga nisbatan toqatsizlik holatlari kuzatilmoqda.

O'zbek jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun odamlarning biri-birini qabul qilishi va hurmat qilishi muhimdir. Madaniy xilma-xillikka e'tibor berish va ijobiy munosabatlarni shakllantirish – bu har bir fuqaroning mas'uliyati hisoblanadi. Toqatlilik – nafaqat ijtimoiy tinchlikni ta'minlaydi, balki mamlakatimizning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqimiz o'rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlash ham kundalik hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA SI

Zamonaviy jamiyatda o'zgalarga toqatlilikning ijtimoiy, falsafiy, tarixiy, psixologik, pedagogik va sotsiologik jihatlarini faylasuf, dinshunos, sharqshunos, tarixchi, pedagog, siyosatshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, o'zgalarga toqatlilikning ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari D.Alimova, X.Boboyev, I.Jovliev, A.Zakrulaev, E.Karimova, Z.Munavvarov, N.Rahmonov, I.Saifnazarova, Z.Qodirova, Z.Husnutdinova, M.Xajiyeva, M.Sharifxo'jayev kabi

olimlar tomonidan umumiy tarzda o'rganilgan bo'lib, o'zgalarga toqatlilik tushunchasi ijtimoiy-falsafiy sintez sifatida baholanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Z.G.Apresyan, A.G.Asmolov, T.Bolotina, V.A.Vorobeva, S.N.Glazachev, G.D.Dmitriev, D.V.Zinovyev, M.Zolotuxin, P.F.Komogorov, I.V.Krutova, M.S.Mirmanova, V.N.Pavlov, V.A.Sitarov, L.V.Stroganova, L.V.Zareskaya, D.V.Zinovevlar tomonidan o'zgalarga toqatlilik va sabr-bardoshlilikni falsafiy-axloqiy tushuncha, shaxs shakllanishining zaruriy elementi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar tizimidagi yashash uslubi tarzida tahlil etilgan.

Xorijlik olimlardan E.Rierdon Betti, T.Adorno, J.Ellport, S.Mendus, S.Heller va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'zgalarga toqatlilik va sabr-bardoshlilik tushunchasining nazariy asoslari, semantik mazmuni, bu xususiyatni tarkib toptirishning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy qirralari, toqatlilik deformatsiyasi va zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalari o'rganilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zbekistonda o'zgalarga toqatlilik va toqatsizlik holatlarini tahlil qilish, jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanish dinamikasi, iqtisodiy sharoitlari, siyosiy muhiti va ta'lim tizimi bilan bog'liq bir qator omillarni qamrab olishni talab etadi.

"O'zgalarga toqatlilik ijtimoiy hodisa sifatida fuqarolarning o'zaro ijtimoiy muloqotlar hamda davlat va jamiyat tashkilotlariga o'z munosabatlarini bildirishlarida ham namoyon bo'ladi. Uning fikr-qarashlarning namoyon bo'lish shakli sifatidagi ko'rinishi jamiyat hayotini ommaviy nazorat qilib borish vazifasi bilan chambarchas bog'liq holda amal qiladi. Ijtimoiy turmush o'zgarishlarini ommaviy nazorat qilib borish yo'li, o'z mohiyatiga ko'ra bir necha ko'rinish va shakllardan iboratdir"[1;9-b].

Ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: a) davlat idorasi va muassasalari tartibidagi muloqotlar tizimi, o'zaro munosabatlar va majlislarda ifodalanuvchi oliyanoblik, xususan hamkasblar va rahbarlarga hurmat bilan qarash – itoatlilik, andishalilik; b) kundalik turmush tarzi, odatiy voqea va hodisalarga doir izhor etiluvchi fikrlarga munosabatlar. "Masalalarga sabr-toqatlilik bilan yondashish, andishalilik bilan o'z fikrini bildirish; v) oila muhitida, do'stlar davrasida, hamfikrlar doirasida namoyon bo'luvchi oliyanoblik. Ayniqsa, o'z manfaatini ustun qo'ymaslik, boshqalar fe'l-atvorini yerga urmaslik xususiyatlarining namoyon bo'lishi; g) to'y va ma'raakalarni o'tkazish asnosida yuz beradigan ijtimoiy mavzudagi fikr almashinuvlar. Masalan, mehribonlik, insof, iymon-e'tiqod, hamdardlik, tenglik, farosat, sadoqatlilik xususiyatlarining namoyon bo'lishi"[1;12-b].

O'zbekistonda toqatlilik jarayonini o'rganar ekan, M.Xajieva, xushmuomalalik, mehr-muruvvat, ahillik kabi fazilatlarni o'zgalarga toqatlilikni namoyon bo'lishining asosiy omillaridan biridir, deb hisoblaydi. Muallifning qayd etishicha, "o'zgalarga toqatlilik o'z millatini boshqalar tomonidan kamsitishga yo'l qo'ymaslik emas, balki umrboqiy qadriyat va an'analarni asrashga, ularni yanada go'zallikka aylantirishga chaqiriqdir. Bu tuyg'u kishilarni shunchaki olijanob qilib qo'ymaydi, balki uning xulq-atvorini, axloqini, siyosiy va ma'naviy pokligini, burchga, o'z xalqiga sadoqatini, muqaddas narsalarga bo'lgan munosabatini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bular insonda tolerantlik, hotamtoylik, baynalmillik tuyg'ularini uyg'otadi"⁶. Shu ma'noda, o'zgalarga toqatlilik – insoniy munosabatlarning xususiyati sifatida kishilar o'rtasidagi do'stlik, mehr-muhabbat, o'zaro yordam, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik, tinchlik, osoyishtalik kabi munosabatlarda namoyon bo'ladi hamda kishilik jamiyati rivojlanishi, taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tobora rivojlanib, o'zining mazmun-mohiyatini boyitib boradi.

O'zbekistonda postmodern jamiyatdagi o'zgarishlar sharoitida o'zgalarga toqatsizlikning kuchayishi bir necha omillar bilan bog'liq. Ushbu omillarning ba'zilar quyidagilar:

1. Ijtimoiy globalizatsiyaning kuchayishi: Globalizatsiya jarayonida turli millatlar, madaniyatlar va diniy guruhlar o'rtasidagi aloqalar kuchayadi. Bu esa ba'zi odamlarda o'zgalarga nisbatan tahdid hissini paydo qiladi. O'zbekistonda ham globallashtirish natijasida turli millatlar, madaniyatlar va diniy guruhlar o'rtasidagi aloqalar kuchayib borayotganligi, ular o'rtasida kelishmovchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu esa, jamiyatda o'zgalarga toqatsizlikni ham jiddiylashtirib yubormoqda.

2. Madaniy identiklik, milliy o'zlikni anglash va bu boradagi destruktiv omillar: Postmodern jamiyatda shaxsiy va guruhviy identikliklar o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu har bir millat, madaniy birlikni o'z o'zini anglashiga va bu boradagi o'ziga xos amaliy faoliyatga aylanadi. Ba'zi guruhlar o'z madaniy identikligini saqlash, uni rivojlantirish uchun boshqa madaniyatlarga qarshi chiqishlari mumkin.

⁶ Хажиева М. Ўзбекистонда бағрикенглик жараёни. – Т.: «Абу-матбуот-контсальт», 2008. –Б. 128.

FALSAFA

3. Ommaviy axborot vositalari ta'siri: Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va internet o'zgalari haqidagi salbiy stereotiplarni yoritishda asos bo'la oladi. Shu bilan birga OAVlardagi noprofessional yondashuv asosida g'azabni, tushunmovchilikni keltirib chiqaruvchi kontentlarni ko'payib borishi, jamiyatdagi turli qatlamlar o'rtasida toqatsizlikni kuchaytirib yubormoqda.

4. Iqtisodiy tengsizlikning ortishi sababi: Iqtisodiy farqlar, ya'ni boy va kambag'al mamlakatlar orasidagi tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik hissini tug'diradi, bu esa o'zgarishlarga qarshi toqatsizlikka olib keladi. O'zbekistonda ham so'ngi yillardagi o'zgarishlar asosida katta sarmoya egalari, yirik tadbirkorlar, bir so'z bilan aytganda turli iqtisodiy asosga ega bo'lgan insonlar ko'paya boshladi. Ularni orasida katta boylik to'plaganlari ham bor, yoki iqtisodiy qiyinchiliklar ortib ketgan, qashshoqlik darajasida yashayotganlarni ham ko'pligini ko'rish mumkin.

5. Psixologik omillar: Inson psixologiyasi ham jamiyatdagi toqatlilikka ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi odamlarda qo'rquv, aniqsizlik yoki stress holatlari boshqa insonlarga nisbatan toqatsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga diniy radikalizmni kuchayishi, millatchilikka yo'g'rilgan g'oyalarni ijtimoiy tarmoqlarda kengayib borishi, destruktiv xarakterni shakllanishi (agressiya, buzg'unchilik) ham jamiyatimizda toqatsizlikni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

6. Tarixiy xotira: Ko'plab jamiyatlarda tarixi "jarohatlar" (masalan, urusha, genotsid) uzoq muddat davomida o'zgalarga nisbatan ishonchsizlik shakllantirgan. Ishonchsizlik bo'lsa, insonlarda boshqalarni yomon ko'rish, ularni xurmat qilmaslik va toqatsiz munosabatni yuzaga keltiradi. O'zbekistonda ham mustamlakachilik mafkurasi odamlarda bir biriga ishonchni yo'qolib borishiga sabab bo'ldi. Bunday tarixiy xotira va tarixiy meros jamiyatimizda toqatsizlikni uzoq muddat saqlanib qolishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda[12].

Ushbu omillarning barchasi jamiyatimizda o'zgalarga toqatsizlikning kuchayishiga ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy tinchlikka tahdid soladi.

O'zgalarga toqatlilikni rivojlantirish mexanizmlaridan biri millatchilikka qarshi kurashish, millatchilikni millatparvarlikka, tolerant millatlararo xurmatga asoslangan munosabatlarga aylantirishni talab etadi. Millatchilikka millatni sevishtirish va uni qadrlash sifatida qarab, beetibor bo'lish millatchilik terrorizmini rivojlantirib yuborishiga asos bo'ladi. Millatchilik terrorchiligi sub'ektlarining o'ta xavfli maqsadlariga mamlakat hududiy yaxlitligini buzish, u yoki bu hududiy birliklarni davlat tarkibidan chiqarib yuborish (milliy separatizm terrorchiligi), o'z mustaqil davlatini tashkil qilish kabilari hisoblanadi. Bunday harakatlarni amalga oshirishda odatda mavjud xukumat bosqinchilikda, milliy (etnik) genotsidni yoqlashda, milliy siyosat olib borishda turli milliy birlik va etnoslar haq-huquqlari poymol etishda ayblanadi.

Millatchilik-separatizm terrorchiligi terrorchilik aktlarini amalga oshirish, imkon qadar ko'proq kishilar ishtirokida to'palon va qo'zg'olonlarni uyushtirish, hokimiyatni qurol bilan qo'lga kiritish va boshqa shu kabi usullarga murojaat qiladi. "Millatchilik terrorizmning keng tarqalgan turlariga milliy ekstremistik guruhlarining "irq sofligi"ni ta'minlash, aniq bir davlat aholisini xorijliklar "xujumi"dan asrab qolish shiorlarini qo'llab-quvvatlayotganlar kiradi. Bunday turdagi millatchilik terrorchiligi "ochiq" immigratsiya siyosatini olib boradigan va shu tufayli o'z qaramog'ida boshqa mamlakatlar vakillaridan iborat bo'lgan katta mustamlakalarga ega bo'lgan davlatlar uchun xos. Millatchilik terrorchiligining bunday ko'rinishi Germaniya, Fransiya, Angliya hamda AQShda kuzatiladi"[2]. Milliy kamsitilganlik (ustunlik, nafratlanish) va uni asosida shakllanuvchi toqatsizlik hissi qator omillarga bog'liq: ziddiyat, ziddiyatning keskinlik darajasiga; millatning birdamligiga; milliy harakatlar yetakchilarining obro'siga; millatchilar e'lon qilayotgan maqsadlarga erishishda ishtirokchilarni manfaatdor qilishning usul va vositalariga; xalqning milliy-psixologik xususiyatlariga va x.q.

Yuqorida ko'rsatilgan ushbu tendensiyalar turli xarakterdagi millatchilik namoyon bo'lishining shakllarida (namoyish va chiqishlar, targ'ibot ishlari, uning legitimlik darajasini oqlash va shu tufayli ayrim xalq, millat, elat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, millatchilik ruhida yoki millatchilik terrorchiligi ruhida tashkilotlar infrastrukturasi shakllantirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, texnik imkoniyatlarini kengaytirish va x.q.) ifodalanadi.

O'zgalarga toqatlilikni rivojlantirishda jiddiy to'siq bo'layotgan illatlardan biri byurokratiyadir. Byurokratiyaning adolatga ziddligi shunda namoyon bo'ladi, u hal etilmagan ijtimoiy muammolarning murakkablashuvi va keskinlashuviga olib keladi. U ayrim imtiyozlarni o'ziga nisbatan noqonuniy tarzda da'vo qiladi. Ish jarayonidagi zo'ravonlik, mansabdorlarga ko'r-ko'rona itoat etish, rasmiyatchilik, sansolarlik, buyruqbozlik, ko'zbo'yamachilik kabi illatlar soxta obro'ga intilish, fisq, fasod, takabburlik, soxta dadillik, odamlarga bepisandlik, sharoitga moslashish orqali xaspo'shlanadi

va oqibatda, qo'shib yozish, proteksionizm, ma'muriy buyruqbozlik kabi salbiy holatlar kelib chiqadi. Byurokratizmning bunday ko'rinishlari jamoatchilik nazaridan chetda avj olmasligi uchun oshkoralik muhiti zarur[3].

O'zbekistonda o'zgalarga toqatililikni rivojlantirishda diniy bag'rikenglikni shakllantirish, diniy aqidaparastlik, diniy fanatizm va diniy chidamsizlikka qarshi kurashish kerak bo'ladi.

Hozirgi davr avvalgi tarixiy bosqichlarga nisbatan olib qaralganda diniy toqatililikning rivojlanib umumsivilizatsiyaviy xususiyat kasb etib borayotgani bilan xarakterlanadi. Bu asosan ko'p asrlar mobaynida diniy jamoalarga xos bo'lib kelgan dogmatik tafakkur tarzining susayishi, konfessiyalar sonining ortishi, sekulyarlashuv tendensiyasining kuchayishi, diniy va dunyoviy jamiyat tamoyillariga muvofiq bo'lgan ongning muayyan daraja uyg'unlashishi, turli din vakillari o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy va shaxsiy aloqalarning kengayib borishi bilan bog'liq voqea, hodisa va faktlar orqali namoyon bo'lmoqda[5].

Ayni paytda, islom dini ta'limotiga ko'ra tan olingan va hurmatlanadigan asosiy huquqlardan biri, bu insonning diniy e'tiqod erkinligi huquqidir. Xususan, Qur'onda shunday bitilgan: "Dinda zo'rlash yo'q..."[4]. Islomshunos olimlar tomonidan ta'kidlangan "mazkur jumlaning mazmuniga doir sharhlarga muvofiq nafaqat islom dini, balki boshqa dinlarni ham qabul qilish borasida majburlashlarga yo'l qo'yilmaydi. Zero, islom aqidalariga ko'ra, xudo insonni yaratib, uning erkinliklari, shu jumladan, diniy e'tiqod erkinligini ham yuqori darajada qadrlanishini buyurgani ta'kidlanadi"[4].

Ilmiy adabiyotlarda diniy toqatililikning kun tartibidagi muhim masalalar qatoridan o'rin olishi sekulyarlashuv jarayoni bilan uzviy bog'liq ekanini to'g'risidagi tahlillar ham keng o'rin egallaydi. Xususan, M.V.Vorobevaning fikricha, bugungi kunda dinning jamiyatda tutgan o'rni va maqomiga sekulyarlashuv va globallashtirishdan iborat ikkita asosiy omil ta'sir etmoqda. "Sekulyarlashuv, - deb yozadi olim, -dunyoviylik jarayoni diniy institutlarning dunyoviy institutlarga almashinishi va hamjihatlikda mavjud bo'lishning yangi shakli sifatida an'anaviy diniylikka qarama-qarshi bo'lgan zamonaviy globallashtirish davrining mahsullari hisoblanadi. Sekulyarlashuv ham, "globallashtirish ham, bir tomondan, dinda e'tiqod qilmaydigan kishilar sonining ortib borishiga olib kelsa, boshqa tomondan esa eski diniy institutlar faoliyatining jonlanishi hamda yangilarining paydo bo'lishini keltirib chiqaradi. Buning natijasida dinlararo muloqotning yangi shakllari yuzaga kelishi ham mumkin va ayni paytda, diniy toqatsizlikning ham avj olib ketish ehtimoli mavjud. Bunday holatda, diniy bag'rikenglik alohida ahamiyat kasb etadi"[5].

XULOSA

Xulosa qilganda, ikkala holatda ham, diniy toqatililik qanday talqinga asoslanmasin, u ijtimoiy barqarorlik va turli din vakillarining o'zaro hamjihatlikda hayot kechirishlarining muhim sharti sifatida chiqadi. Xususan olib qaralganda esa, diniy toqatililik talqinining birinchi varianti, ya'ni o'zga diniy e'tiqod sohiblarining qadriyatlarini tan olish va hurmat qilish maqbulroq ekanini ta'kidlash joiz. Zero, befarq munosabat ko'p hollarda bilmaslikdan kelib chiqadi va toqatsizlikning turli ko'rinishlarini yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, o'zgalar va boshqalar, ularning madaniyati, shu jumladan, diniy qadriyatlari to'g'risida bilimga ega bo'lmaslik ularga nisbatan befarq, e'tiborsiz va toqatsiz munosabatning shakllanish ehtimolini kuchaytiradi. Aksincha, kishilar o'zlari kabi boshqalarning diniy e'tiqodi, ular muqaddas bilgan ta'limotning asosiy g'oya va tamoyillari to'g'risida muayyan darajada bilimga ega bo'lsalar, u holda o'zaro umumiy va farqli jihatlar borasida ularning tasavvurlari konkretlashadi, o'zaro o'xshash jihatlar alohida urg'u berib borish orqali esa diniy bag'rikenglik qaror topib, mustahkamlanib boradi. Natijada, "turli din vakillari o'rtasida o'zaro ijobiy kayfiyat, qarash va yondashuvlar uchun qulay ijtimoiy muhit shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova E. O'zbek tolerantligi. – T.: Aloqachi, 2005. – B. 9.
2. Xajieva M. O'zbekistonda bag'rikenglik jarayoni. – T.: «Abu-matbuot-konsalt», 2008. –B. 128.
3. Melenteva N. Razmyshleniya o terrore // Elementy. Yevraziyskoe obozrenie. №7, Moskva, 1996.
4. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti", 2014. – 42 b.
5. Vorobeva M.V. Formirovanie mexanizmov religioznoy tolerantnosti // Kultura i veroterpimost. K 300-letiyu Sankt-Peterburga. Materialy X Sankt-Peterburgskix religiovedcheskix chteniy. – Sankt-Peterburg, 2003. – S. 12-14.
6. Musaev O. R. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari. Falsafa va huquq. 2017 yil № 1. –B. 24.
7. Murtazaeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.-Toshkent: Universitet, 2007. -B.126.

FALSAFA

8. Natsionalnaya model i programma po podgotovke kadrov-dostijenie i rezultat nezavisimogo Uzbekistana.- Tashkent:Ma'rifat-Madadkor, 2001. –S.174-189.
9. Ochildiev A.Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. –T.: "O'zbekiston", 2004.–B.37-38.
10. Otamuratov S. Globallashuv va millat.- T.: "Yangi asr avlodi", 2008. – B.64-65.
11. Paxrutdinov Sh, Nazarov N. Milliy totuvlik – tahdidbardoshlik omili.-Toshkent: «Jamiyat va Boshqaruv» jurnali, 2005. № 3,. 10-bet.
12. Qo'chqarov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy siyosiy jarayonlar.– T.: "Akademiya", 2007.– B. 23.
13. Qodirova Z.R,Sharipov A.J. va boshqalar. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari.Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. 23-bet.
14. Qo'shaqova G. Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish yo'llari. -Jizzax: 2010, -B. 58.